

ZIKRILLA NE'MAT IJODINING O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Jo'rayeva Mexrigiyo Quvondiq qizi,

BuxDU 10.00.02. – O'zbek adabiyoti yo'nalishi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlari va shoirlarining shoir Zikrilla Ne'mat ijodiga bildirgan fikrlari, shoir ijodining o'rganilish jarayonlari tahlil qilinadi. Ijodkor she'riyatining badiiy-estetik xususiyatlari, poetik tafakkuri, milliy va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi o'rni ilmiy qarashlar asosida yoritiladi. Shuningdek, Zikrilla Ne'mat ijodiga berilgan adabiy baholar, tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariy mulohazalar hamda shoirning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi mavqei ochib beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy tahlil, ijodiy jarayon, shoir, adabiyotshunos olim, aruz vazni, novatorlik, muxammas, adabiy jarayon, adabiy tanqid.

Аннотация. В данной статье анализируются мнения узбекских литературоведов и поэтов о творчестве поэта Зикриллы Неъмата, а также процессы изучения его литературного наследия. На основе научных взглядов освещаются художественно-эстетические особенности поэзии автора, своеобразие его поэтического мышления, а также роль его творчества в выражении национальных и культурных ценностей. Кроме того, рассматриваются литературные оценки, данные творчеству Зикриллы Неъмата, теоретические положения, выдвинутые исследователями, и раскрывается место поэта в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: художественный анализ, творческий процесс, поэт, литературовед, аруз, новаторство, мухаммас, литературный процесс, литературная критика.

Annotation. This article analyzes the study of the works of Zikrilla Ne'mat by literary scholars and poets. The artistic and esthetic feature of the poet's poetry, his poetic thinking, and his role in expressing national and spiritual values are highlighted on the basis of scholarly views. The article also reveals the literary evolutions given to Zikrilla Ne'mat's works, the theoretical considerations put forward by researchers, and the poet's place in modern Uzbek literature.

Keywords: artistic analysis, creative process, poet, literary scholar, aruz meter, innovation, mukhammas, literary process, literary criticism.

Kirish. Shoir Zikrilla Ne'mat zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan bo'lib, o'ziga xos tafakkuri, badiiy-estetik qarashlari hamda milliy ruhni aks ettiruvchi ijodi bilan alohida o'rin egallaydi. Shoir asarlarida inson ruhiyati bilan bir qatorda Vatanga muhabbat, el-yurt himoyasiga bel bog'lashga undash, ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarning badiiy talqini kabi yetakchi mavzular o'rin egallaydi. Uning obraz yaratish uslubi, she'riy mahorati va poetik uslubiyati kabilar zamondosh shoirlar va adabiyotshunos olimlar e'tiborini o'ziga qaratgan. Umuman olganda har bitta ijodkor uchun o'z hamkasblari va soha o'rganuvchilari tomonidan qiziqish bildirilishi o'sha ijodkorning ijodiy salohiyati va badiiy mahoratining qanchalik zalvorli ekanligidan dalolat beradi. Shoir Zikrilla Ne'mat ham shunday munosib va e'tibor markazidagi shoirlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zikrilla Ne'mat ijodi o'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy she'riyatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilgan. Tadqiqotchilar va ijodkorlar uning she'riyatida aruz va barmoq vaznining uyg'un qo'llanishi, milliy ruh, Vatanga muhabbat hamda ma'naviy qadriyatlar ifodasini alohida ta'kidlaydilar.

Adabiyotshunos olimlar (Aziz Qayumov, Nusratilla Jumaxo‘ja va boshqalar) shoirning muxammas janridagi yangiliklari, shakl va mazmun uyg‘unligi hamda klassik an‘analarga ijodiy yondashuvini yuqori baholagan. Shoirlar (Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Omon Muxtor) esa uning she‘riyatidagi ohangdorlik, ma‘nodorlik va badiiy samimiyatni e‘tirof etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Zikrilla Ne‘mat ijodini o‘rganishda ilmiy-tahliliy, tarixiy-qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Shoir she‘riyati adabiyotshunoslikda mavjud nazariy qarashlar asosida tahlil qilinib, uning badiiy-estetik xususiyatlari aniqlanadi.

Qiyosiy metod orqali shoir ijodi mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari bilan solishtirildi. Tarixiy yondashuv esa uning ijodiy rivojlanish bosqichlarini va adabiy jarayondagi o‘rmini yoritishga xizmat qildi. Tavsifiy metod yordamida esa she‘rlardagi g‘oya, obraz va badiiy vositalar tizimi umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Shoir ijodini o‘rgangan va uning ijodiga qiziqish bildirgan ijodkor va ilm ahllarini shartli ravishda 2 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Shoir ijodiga qiziqish bildirgan shoirlar.
2. Shoir ijodini o‘rgangan adabiyotshunos olimlar.

Har bir ijodkor uchun o‘z hamkasblari tomonidan ijodiga qiziqish bildirilishi bu juda katta sharaflı yutuq hisoblanadi. Har qanday bildirilgan iliq fikr va tanqidiy tahlillar ijodkorni o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashga undash barobarida mehnatlaridan faxrlanish tuyg‘usini ham beradi. Bundan tashqari ushbu holat shoirning badiiy salohiyati va ijodining zalvorli yukidan dalolat beradi. Shoir Zikrilla Ne‘mat ijodi ham Dilshod Rajab, Nabijon Ermat, Toshpo‘lat Ahmad, Jumaniyoz Jabborov singari zamondosh shoirlar bilan bir qatorda o‘zbek adabiyotining otaxon vakillari bo‘lgan Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Omon Muxtor singari ijodkorlarning ham yuksak e‘tiroflariga sazovor bo‘lgan.

O‘zbekiston Qahramoni, davlat madhiyasi muallifi, ulug‘ shoir Abdulla Oripov Zikrilla Ne‘mat she‘riyati haqida fikr bildirar ekan, shoirning “Ezgulik o‘lkasi” nomli to‘plamiga bitilgan **“Har chamanning o‘z bulbuli bor”** nomli so‘zboshisida ijodkorni yurt bo‘stonida kuylayotgan bulbulga o‘xshatadi. Ijodi haqida esa *“Zikrilla ijodning hiyla murakkab janrini tanlagan. Ko‘pincha aruzda ijod qiladi. Uning mashqlari ushbu mumtoz vazni yaxshi biluvchi oqsoqollar nazariga ham tushgan. Demak, Zikrilla uddalayapti”*. [2.2]. Ushbu qisqagina e‘tirof zamirida juda katta ishonch borligi aniq. Jumlada *“ijodning hiyla murakkab janri”* deganda aruz vaznida yoziladigan ga‘zal va muxammaslarga ishora mavjud. Zikrilla Ne‘matning g‘azal va muxammas Chunki aruz singari murakkab vaznda ijod qilish shoirdan juda katta kuch, mehnat va bilim talab qiladi. Ushbu vaznda ijod qilmoqchi bo‘lgan ijodkor ilmi ba‘de, ilmi aruz va ilmi qofiya singari bilimlar uchligidan iborat “ilmi segona”ni puxta o‘zlashtirmog‘i lozim. Demak, otaxon shoirimizning muxtasar tarifi Zikrilla Ne‘mat ijodining puxta bilim va ijodiy mahorat zamiriga qurilganligini ta‘kidlaydi.

Mashhur fransuz yozuvchisi Bualo Nikolaning “She’riy san’at” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan yetuk iste’dod egasi, mashhur shoir Jamol Kamol ham Zikrilla Ne’mat she’riyati xususida zalvorli fikrlarni ilgari suradi. Yozuvchi shoir ijodidan so‘zlar ekan, uning she’rlari haqida shunday deydi: *“Men shoir Zikrilla Ne’matning g‘azal va muxammaslarini varaqlab, o‘ziga xos ohangdorlikni his etdim. Misralar ravon oqadi, bayotlar tabiiy jaranglaydi. She’rxon ularni o‘qirkan, qiynalmaydi, qoqinmaydi. Bu yaxshi fazilat. She’rda ohangdorlikdan keyingi bosqich – ma’nodorlik. Zikrilla Ne’mat yangi betakror, ohori to’kilmagan ma’nolarni topib aytishga intiladi”*. Yuqorida bildirilgan fikrlarga ko‘ra aruz vaznida bitilgan she’riy asar uchun eng muhim ikki jihat bu – ohandoshlik (musiqiylik) va ma’nodorlik. (Har qanday she’riy asar uchun ushbu sifatni muhim omil deya qo‘llay olmaymiz. Chunki Yevropa adabiyotidan kirib kelgan ayrim vaznlar va janrlar bu ikki xususiyatga birdek ega bo‘lmasligi mumkin. Masalan erkin (verlibr, sarbast) she’rda ohandoshlik emas, mazmunga katta e’tibor qaratiladi. Yana bir yevropa adabiyotidan kirib kelgan janr borki, unda shakliy yaxlitlik mazmuniy butunlikdan ustunroq. Bu sinkveyn janridir.). Shoir Jamol Kamol e’tirofiga ko‘ra esa Zikrilla Ne’matning aruziy she’rlari yuqoridagi ikki xususiyatni o‘zida birlashtirib, shakl va mazmun munosabati yaxlitligiga egalik qiladi. Bu esa shoirlik mahoratining asosiy belgilaridandir.

Taniqli yozuvchi, o‘zbek adabiyotida “Ffu”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Maydon”, “Aflotun” singari modernistik romanlari bilan nom qozongan adib Omon Muxtor ham shoir Zikrilla Ne’mat ijodi to‘g‘risida juda iliq va tiniq fikrlar bildirib o‘tgan. Yozuvchi shoirning “Onam ekan rayhonlar” saylanmasiga **“Qalbga tilangan kuch”** nomi bilan so‘zboshi bitadi va ushbu so‘zboshida shoirning qalb go‘zalligi uning she’rlariga ham ko‘chganligi haqida so‘z yuritadi. Shoirning she’rlarida yashashga bo‘lgan qiziqish oshirilishi hissi ustun ekanligini payqaydi. Bundan tashqari so‘zboshida adib shoirning uslubi to‘g‘risida ham qisqacha to‘xtalib o‘tadi: *“Zikrillaning she’rlari, asosan, xalq yo‘li va sharqona ohanglarda. Ayrimlari qo‘shiqqa aylanib ketadi. Zikrilla “tesha tegmagan” tarzda fikr yuritish, so‘zlashga urinadi. Ba‘zan misralar ostida yengil tabassum seziladi”*. [6.4] Aslini olganda she’rning sehri ham uning yengil o‘qilishi va ma’nolarining teranligidadir. Yengil tarzda ulkan ma’nolarni she’rxonga yetkazib berish shoirdan juda katta mahorat talab qiladi. Bilamizki ba‘zan bir necha tom yozilgan romanlar bera olmagan ma’noni to‘rt misra go‘zal yozilgan she’r namoyon qiladi.

Lirik turda yozilgan asarlar inson ruhiyati, ichki kechinmalari, qalb tug‘yonlarini ochib berishi bilan qolgan ikki adabiy turdan farq qiladi. Lekin bu lirik turda yozilgan asarlarda ijtimoiylik, insonparvarlik, turli xil hayotiy pozitsiyalarga e’tibor qaratilmasligini anglatmaydi. Shoir Zikrilla Ne’mat she’rlarida shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi va she’rxonni ushbu vazifani vijdonan bajarishga undash kabi g‘oyalar badiiy go‘zal tarzda yetkazib beriladi. Masalan, “To‘marisni esga oling” she’rida barchani mardlikka, jasorat va sadoqatli bo‘lishga chorlov borligini sezish qiyin emas:

*Massagetlar malikasi – mard To ‘maris,
Jasorati tildan tilga ko ‘chib yurar.
Shunday botir ayoli bor mamlakatdan,
Yovlar o ‘tdan qo ‘rqan kabi qochib yurar.
Sadoqat deb bilib qallda yonar hisni,
To ‘marisni esga oling, To ‘marisni! [3.4]*

Shoirning ayrim she’rlarida Vatan himoyasi, tinchligi uchun favqulotda tayyor turish kerakligi g‘oyasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga bevosita shoirning Ichki Ishlar tizimida faoliyat yuritishi ham ta’sir qiladi. Yozuvchi Omon Muxtor ham bu holatni shunday ta’riflaydi: *“Qanday bo‘lmasin, Zikrilla Ne‘matning butun yaxlit she’riyatida yoshlik g‘ayrati bilan fidoyi askar holati birlashib ketgani ko‘rinadi. Shu boisdan, uning she’rlaridagi yurtga, xalqqa, yorga nisbatan munosabat ibratli”*. [6.5] Yuqoridagi misralarda ham yosh avlodni o‘z ajdodlariga munosib bo‘lishga, Vatanga sadoqatli bo‘lishga, ajdodlarni yod etishga bo‘lgan chorlov mavjud. Umuman olganda shoir ijodi turli xil mavzu va g‘oyalar asosiga qurilgan.

Shoir ijodiga qiziqish bildirgan va u haqida fikr yuritgan yana ko‘plab ijodkorlarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi, bolalar shoiri, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Dilshod Rajab ham hamkasbi ijodi to‘g‘risida iliq va samimiy fikrlarni bildirib o‘tadi. **“Samimiyat va badiiyat bilan...”** deb ataluvchi maqolasida shoirning kattalar uchun ijod qilishga qaramasdan, bolalar adabiyotiga qo‘l urib ko‘rganligini samimiy ta’kidlaydi: *“Adabiyotdagi ezgu an‘analardan biri , ya’ni kattalar uchun yozadigan adiblarimizning bolalar adabiyotiga ham qo‘l urib, yaxshi asarlar bilan yosh avlodni “siylashi” bugungi zamondosh ijodkorlar tomonidan ham davom ettirilayotgani quvonchli , albatta. Zikrilla Ne‘mat ham shu an‘anaga amal qilib bolajonlar uchun “Besh baho olgan kunim”, “Jirafa nechun xafa?”, “Mardi maydonlar yurti”, “Ayiqning nabirasi”, “A‘lochilar alifbosi” kabi kitoblarni chop ettirdi. Bu kitoblardagi ba’zi she’r, topishmoq, tez aytishlar maktab darsliklariga, sinfdan tashqari o‘qish kitoblariga ham kiritilganligi ahamiyatlidir”*. [7.43] Shoirning ushbu harakati adabiy jarayondagi an‘anaviylikka misol bo‘lsa, ayrim bir she’rlari bilan o‘zbek bolalar she’riyatida novatorlik ahamiyatini ham kasb etadi. Masalan, “Vatan alifbosi” she’rining barcha bandlari alifboning har bir harfi bilan boshlanadi. Novatorlik – adabiyotda biror yot shaklni boshlab berish, yangilik kiritish kabilarni bildiradi. Masalan, O‘zbek romanchiligi asoschisi A.Qodiriy o‘zbek adabiyotida ilk bora roman yozishni boshlab bergan. Jadid bobomiz Cho‘lpon esa “Kecha va kunduz” romani orqali ikki qismdan iborat birinchi roman-dilogiya yozishni boshlab berdi. Asqad Muxtor “Chinor” romani orqali shavqatsiz realizm tushunchasini o‘zbek adabiyotiga birinchi bo‘lib olib kirdi. Tog‘ay Murod esa surxon shevasini asarlarida qo‘llash bilan, epik asarda nasriy qofiya – sajning ishlatilishini yana bir pog‘ona yuksakka olib chiqdi. Shoir Zikrilla Ne‘matning mo‘jaz yangiligi ham bolalar she’riyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir Dilshod Rajab ham hamkasbining

ushbu harakatini munosib baholaydi: “*“Besh baho olgan kunim” kitobidagi “Vatan alifbosi” she’ri shoirning shakliy jihatdan yangiligi bo‘lib, unda alifbodagi har bir harfga to‘rt qatordan she’r bitilgan. Bu torrtliklarning har bir satri o‘sha harflar bilan boshlanuvchi so‘zlardan iborat bo‘lib, barchasi vatan mavzuida...*

Avestoni o‘qib kuch oldim,

Ajdodlarning qalb sadosidan.

Aziz Vatan, men uchun o‘zing,

Abadiyat alifbosisan” [7.45]

Yuqoridagi she’r alifboning boshi sanalmish “A” harfi bilan boshlangan. Misralarning barchasi ushbu harf bilan ochib beriladi. Bunda alliteratsiya (tavze) badiiy san’atidan foydalaniladi. Ya’ni har bir misra bir xil tovush bilan ifodalanadigan so‘z bilan boshlangan. Bu holat o‘qishni osonlashtiradi, fikr nima haqida ketayotganligiga urg‘u qaratishga va ilgari surilgan g‘oyani aniq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari o‘qilishni yengillashtiradi, bolaning xotirasida saqlanishi osonlashadi.

Shoir ijodi haqidagi fikrlar faqatgina badiiy adabiyot vakillari tomonidan ilgari surilmasdan, adabiyotshunos olimlar ham u to‘g‘risida munosib fikrlar yuritadilar. Jumladan taniqli adabiyotshunos olimlardan Aziz Qayumov, Nusratilla Jumaxo‘ja, Nurboy Jabborov, Hamidullo Boltaboyev, Islomjon Yoqubov, Adhambek Alimbekov, Sultonmurod Olim va boshqa adabiyotshunoslar shoir ijodiga oid salmoqli qarashlarni ilgari suradi. Adabiyotshunoslar shoir ijodini tadqiq qilishda uning badiiy mahorati, ijodiy yutuqlari va hozirgi adabiy jarayonga qo‘shayotgan hissi bilan bir qatordamavjud kamchiliklari ham xolisona tahlil qilinadi. Bu esa o‘z barobarida ilmiy obyektivlik tamoyiliga asoslanib, birtomonlama baholash va asossiz maqtov (maddohlik)dan qochishga xizmat qiladi. Oqibatda ujdorning adabiy merosi oqilona o‘rganilib, uning ijobiy tomonlari va kamchiliklari mutanosib ravishda yoritilib, adabiy-estetik qiymati haqqoniy baholanishiga olib keladi.

Atoqli adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov shoirning “Muxammas gulshani” to‘plami to‘g‘risida **“Bulbulnavolik orzusi”** deb atalgan so‘zboshi yozadi. Unda ijodkorning muxammaslari to‘g‘risida samimiy fikrlar yuritiladi: *“Shoirning mahorati muxammas bog‘layotgan misralarga hamohanglik, mazmunni boyitish va unga mos tarzda fikrni davom ettirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mumtoz shoirlar – Munis, Uvaysiy, Nodira, Zavqiy, Furqat, Habibiy, hozirgi o‘zbek shoirlari – Jamol Kamol, Omon Matjon, Habib Sa’dulla, Anvar Yunusov va boshqa ijodkorlar g‘azallariga bog‘langan muxammaslar ham diqqatga sazovor”*. [5.4] Bu ta’rifdan ko‘rish mumkinki, Zikrilla Ne’mat yuqorida nomlari tilga olingan shoirlar bilan birgalikda zamondosh shoirlar g‘azallariga ham muxammaslar bog‘lagan. Va yana shuni ham aytish mumkinki, aruz vazni o‘zbek adabiyotida o‘z ornini yo‘qotmaganligini fikr so‘ngida nomlari tilga olingan shoirlar ijodida g‘azallar uchrashi tasdiqlanganidan bilsak ham bo‘ladi. Bundan tashqari olim ijodkorning Husayniy (Husayn Boyqaro)ning “Bo‘lmasa” radifli g‘azaliga

bog‘langan muxammasiga juda yuksak baho beradi. Jumladan: *“Bizda Husayn Boyqaro (Husayniy) g‘azallariga bog‘langan muxammasni men faqat Zikrillo Ne‘mat Vafoiy ijodidagina uchratdim. Garchi Navoiy Husayniy she‘rlarini, uning badiiy qobiliyatini o‘ta mubolag‘ali ifodalarda ulug‘lagan bo‘lsa ham, bizning adabiyotshunosligimiz Husayniy badiiy merosi bilan chuqur shug‘ullanganicha yo‘q. Agar shu ish rivoj topsa Zikrillohning Husayniy g‘azaliga muxammasi ham diqqatga sazovor bo‘lajak”*. [5.5] Zikrillo Ne‘matning muxammas yozishdagi yana bir yangiligi shundan iboratki, u ayrim muxamaslarining oxirgi bandi dastlabku uch misrasini o‘z taxallusi ostida, o‘zi muxammas bog‘lagan shoir g‘azali ohangdoshligi va mazmunini saqlagan holda yozadi, to‘rtinchi va beshinchi misralarda esa muxammas bog‘langan shoir g‘azalining har bayti aynan takrorlanadi yoki o‘sha shoirning taxallusi keltirilib, kimning g‘azali ekanligiga ishora berib o‘tiladi:

*Dil qushumning nolasini sayyodi zulfing bilmadi,
Zulflaringni demakim, atrini Zikriy bilmadi,
Bir takallum aylamak ajrini lutfing bilmadi,
Chun visoling davlati qadrini Lutfiy bilmadi,
Lojaram jonim, oni dog‘i firoqing o‘rtadi.* [5.47]

Lutfiy g‘azaliga yozilgan ushbu muxammasda yuqoridagi fikrning aynan tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek adabiyotshunoslik ilmida o‘z so‘zini ayta olgan adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori professor Nusratilla Jumaxo‘ja ham shoir ijodi to‘g‘risida zalvorli fikrlarni ilgari suradi. Jumladan, *“Muxammas gulshani”* to‘plamiga yozgan taqrizida uning muxammaslari to‘g‘risida ilmiy-tanqidiy qarashlarini yoritib o‘tadi. Shoirning muxammas yozishdagi o‘ziga xos usulni farqlaydi: *““Muxammas gulshani” va undagi muxammaslar ikki jihati bilan o‘zidan oldingi muxammaslar to‘plamiga nisbatan yangilik kasb etadi. An‘anaga ko‘ra, muxammas faqat g‘azal janridagi asarga bog‘lanar edi. Zikrillo noan‘anaviy yo‘ldan borib, Ahmad Yassaviy hikmatlari va g‘azal janriga mansub bo‘lmagan boshqa turdagi she‘rlarga ham muxammas bog‘lash tajribasini vujudga keltirgan. Shuningdek, qaysi ijodkor asariga muxammas bog‘lasa, o‘sha ijodkorning shaxsiyati, hayoti va ijodi to‘g‘risida ixcham ma‘lumotnoma taqdim etgan. Bu diqqatga sazovor ijodiy tajriba bo‘lib, “Muxammas gulshani” o‘quvchisida muxammasga asos bo‘lgan asar muallifi haqida tasavvur hosil qilish qulayligini yaratadi”*. [1.22] Demak, adabiyotshunos olim shoirning yana bir novatorlik xususiyatini ochib beradi. Olim shoir ijodiga xolisona tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Unung yuqoridagi badiiy yutuqlari bilan birgalikda ayrim bir juziy kamchiliklarga yo‘l qo‘yganini ham e‘tibordan qochirmaydi. To‘plamda shoirning vazn masalasida uchraydigan kamchiliklari aniqlanib, shoirga ular ustida qayta ishlash kerakligi aytilganligi, shoirning esa buni mas‘uliyat bilan qayta ko‘rib chiqqanligi e‘tirof etiladi. Shundan so‘ng shoir har bir muxammasning vazniga alohida

to'xtalib, muxammas ostiga uning vaznini ham belgilab o'tadi. Bu esa shoirning mukammallikka bo'lgan intilishidan dalolatdir.

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda shoir ijodi o'zbek adabiyotsunosligida muhim o'rin egallaydi. Shoirning asarlari va adabiy-estetik qarashlari turli davrlarda ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilib, uning she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va obrazlar tizimi, til va uslubiyoti mahorat bilan ilmiy tahlil qilingan. Aruz va barmoq vaznlarida yozilgan she'rlari, turli doston va klassik janr namunalari kitobxon va ilm ahli e'tiboridan joy egallab kelayotganligi shoirning yuqori badiiy mahoratidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адблар Зикрилла Неъмат ижоди ҳақида / З. Неъмат. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2022. 64 б.
2. Эзгулик ўлкаси / З. Неъмат. – Тошкент: А. Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009.
3. Марду майдонлар юрти / З. Неъмат. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2019.
4. Муҳаббат меҳроби / З. Неъмат. – Тошкент: А. Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009.
5. Мухаммас гулшани / З. Неъмат. – Тошкент: «Истиклол» нашриёти, 2009.
6. Онам эккан райҳонлар / З. Неъмат. – Тошкент: Шарқ нашриёт акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011.
7. “Samimiyat va badiiyat bilan” / Dilshod Rajab. “Tong yulduzi” gazetasi. – Toshkent. 21.11.2021.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934